

STUDYING THE SCIENCE OF LIFE AND CREATIVITY AS A SAMPLE FOR TODAY'S YOUTH

Yulchiyev Shukurullo Khayrulla o'g'li

Tashkent Pediatric Medical Institute, Faculty of Medicine
Student of group 207
+998990476627

Mavlonov Sanjar Mirzohid Oglu

Tashkent Pediatric Medical Institute, Faculty of Medicine
A student of the 207th group
+998914747568

Annotation: In today's day, we reflect on the idea that the study of the creativity of writers, the promotion of the science of enlightenment as an example of the life and creativity of Berdaq in keltrish as an example to the youth of our time.

Keywords: Berdimurod Qargabay son, "to my son", "do not be Alimaq", "to the people".

ILIMGA INTILGAN BERDAQ HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH BUGUNGI KUN YOSHLARIGA O'RNAK VAZIFASINI BAJARASHI

Yulchiyev Shukurullo Xayrulla o'g'li

Toshkent pediatriya tibbiyot isnituti Davolash ishi fakulteti
207-guruh talabasi
+998990476627

Mavlonov Sanjar Mirzohid o'g'li

Toshkent pediatriya tibbiyot isnituti Davolash ishi fakulteti
207-guruh talabasi
+998914747568

Annotatsiya: Bugungi kunimizda adiblar ijodini o'rganish, targ'ib qilish ilim ma'rifat ziyolarini zamonamiz yoshlariga o'rnak sifatida keltrishda Berdaq hayoti va ijodini namuna sifatida olinishi haqida fikir mulohaza yuritimiz.

Аннотация: сегодня мы размышляем о том, как жизнь и творчество Бердака могут быть приняты в качестве примера для изучения, пропаганды творчества писателей и просвещения молодежи нашего времени.

Kalit so'zlar: Berdimurod Qarg'aboy o'gli, "O'g'limga", "Alimoq bo'lma", "Xalq uchun".

Ключевые слова: Бердимурод Каргабой сын, "Моему сыну", "Не падай духом", "для народа".

"Bugun biz Yangi O'zbekistonda ilm-fan va madaniyat sohasida olib borilayotgan tub islohotlar orqali yangi Uyg'onish-Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratishga bel bog'laganmiz. Bu borada biz jahon hamjamiyati bilan, Sizlar kabi ko'zga ko'ringan ilm-fan

va madaniyat namoyandalari bilan yaqin hamkorlik munosabatlarini amalga oshirishdan manfaatdormiz”¹ Sh.M.Mirziyoyev.

Barchamizga malumkiy Berdaq, shoir, Qoraqalpoq adabiyoti asoschilaridan biri sanaladi, u 1827 yili Qoraqalpog’istonning Mo’ynoq tumanida tug’ilgan. Berdaq uning tahallusi hisoblanib uning asl ismi Berdimurod Qarg’aboy o’g’li bo’lgan. Berdaq Qoraqalpog’istonning hozirgi Mo’ynoq tumanida baliqchi oilasida tug’ildi. Shoir yoshligida ota-onasidan erta yetim qoladi. Shoirning hayoti katta mashaqqatlarda o’tadi, bir burda non uchun ovulma-ovul O’rta Osiyo shahar va qishloqlarini kezib musofirchilikda kun kechirgan. Tahsil olishda ham birqancha mashaqqatlarga qaramasdan avval ovul maktabida boshlang’ish savodini chiqaradi, so’ng ilimni yanada mustahkamlashlik uchun madrasada tahsil olish istagi bilan o’sha zamonning ilimda nomi chiqqan madrasada o’zining ilm darjasini oshirgan.

Ammo o’sha zamonning zayli va qiyinchiliklari ta’lim oshda bir qancha to’siqlarga uchrab oilaviy sharoitlari sababli moddiy qiyinchiliklar sabab madrasada o’qishni oxiriga yetkazolmay qoladi, madarasani tashlab ketishga majbur bo’ldi. Berdaq hayoti davomida tarixiy jarayonlarni o’z ko’zi bilan ko’rib o’rganganlarini yanada mustahkamlab tarixni ham ilmiy ham amaliy jihatdan bilgan shaxs sifatida gavdalanishi va xalq og’zaki ijodida ham o’zini bir qancha yo’nalishlarni o’zida mujassam qilgan bo’lib o’zi yozgan sherlarni dostonlarini ijodiy faoliyatida xalq namoyish etgan, qolaversa xalq Berdaq ijodini mamnuniyat bilan qabul qilgan.

Berdag nafaqat o’z ijodidan xalqqa yetkazgan balkiy o’ziga ustoz deb bilgan Navoiy, Fuzuliy, Mahtumquli, Kunxo’ja asarlarini chuqur mutola qilib ulardan bazilarini kuyga ham solib xalq ommasiga yetkizgan baxshilardan ham xisoblangan. Berdaq ijodkorlikni dastlabki ta’limni olish bilan birga 18-19 yoshlarida do’mbira chertib kuyalsh orqali ijodini mustahkamlab brgan shoirdir, turli davralarda xalq bayramlarida davralarda kuylash bilan birga o’zining ilk she’rlarini o’qib tanila boshlagan. O’zining xalq orasida yetarlicha tanilgan vaqtida Berdaq 25 yoshda iste’dodli shoir sifatida xalq orasida tanila boshladi.

Berdag xalq hayotini yoshligidan kuzatuvchanlik va hayotiy tajribalari asosida yaxshi bilgan, xalqning ezgu orzu-istaklarini yaxshi bilgan shoir edi. Shoirning she’rlarida xalqparvarlik, vatanparvarlik ruhi kuchli edi. Shoir o’zining “Xalq uchun” degan she’rida yoshlarni mehnatkash xalq uchun jonini ayamalikka chaqirdi. Shoirning “Bo’lgan emas”, “Umrim” va “Soliq” kabi she’rlarida mehnatkash xalqning og’ir hayoti o’z aksini topib, Xiva xonlari, amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligi ifodalangan. “O’g’limga”, “Alimoq bo’lma” kabi she’rlari orqali esa yoshlarni Vatanni sevishtga, ma’rifat cho’qqilarini egallashga chaqirdi. Berdaq asarlarida qoraqalpoqning 19-asrdagi ijtimoiy hayoti aks etgan, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g’oyalari ilgari surilgan. Berdaq ijodi ko’p qirrali. U xalqning baxtiyor yashashini, odil podshohni orzu qilgan.

Berdagning, ”Ko’rindi”, “Bulbul” kabi ijtimoiy-falsafiy she’rlarida mehnatkash xalq dardi, orzu-armonlari betakror ifoda etilsa, “Nodon bo’lma”, “Qaramas”, “Xasis ekan”, “Bilasanmi” kabi she’rlarida ma’naviy-axloqiy masalalar yoritilgan.”Ters qaytgan”, “Xo’jam”, “Dod dema”singari asarlarida jamiyatdagi har xil illatli kishilar, odatlar qoralanadi, fosh etiladi. Berdaq tarixiy mavzudagi “Avlodlar”, “Omogeldi”, “Azadosbiy”, “Ernazarbiy” asarlarida shoir xalq qahramonlarini faxr bilan kuylaydi. Berdaqning “Avlodlar” asari tarixiy voqealar salnomasi bo’lib, qoraqalpoq xalqi bilan boshqa turkiy xalqlar hayotidagi mushtarak voqealar qalamga olinadi, qabila va xalqning kelib chiqishi, turmish tarzi, urf odatlari haqida bayon qilinadi.

¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro madaniyat forumi ishtirokchilariga, qilgan nutqidan 15.09.2021-yil

Berdaq xalq orasidagi ba'zi ta'magir imomlarning kirdikorlarini fosh etadi ("Yaxshiroq", "Shekilli" va boshqalar), ayollar huquqini himoya qiladi. Shoirning ijod yo'lini o'rganar ekanmiz barcha xalqni va yoshlarni vatanni sevishga, ma'rifat cho'qqilarini egallashga charlaydi. Berdaq ijodida xalq dardini yaqindan o'rganib "O'g'limga", "Ahmoq bo'lma" kabi asrlarni yaratgan. Adibning xalq dardini kuylagan mashxur sheridan namuna keltirib o'zimizning vatanparvarlik, odamiylik kabi yuksak fazilatlarni yuksaltirishda foydalansak.

Xalq uchun.

Yigit bolgan arslon kabi tugilgan,
Tanlab bolmay xizmat qilgin xalq uchun.

Yigit bolsang arslon kabi tugilgin,
Ozni demay xizmat qilgin xalq uchun.

She'riy mushohadalari va hayotga qarashlarida Berdaq mehnatkashlarning baxtiyor yashashini orzu qildi. Berdaq ijoda xalq og'zaki adabiyoti an'alariga yaqin turadi. Ijodi serqirraligi, asarlarining g'oyaviy va badiiy yuksakligi bilan qoraqalpoq adabiyoti tarixida asosiy mavqeni egallaydi. Uning ko'pgina asarlari o'zbek va boshqa tillarga tarjima qilingan. Berdaq o'zining axloqiy qarashlarida Sharqning eng yaxshi an'alarini davom ettirdi. U "Izladim", "Xalq uchun", "Yaxshiroq", "Menga kerak" kabi she'rlarida kishilarning halol mehnatini ulug'laydi. Uningcha, har bir odamning asosiy burchi xalqqa va uning farovonligi yo'lida xizmat qilishdir. Berdaq xuddi Navoiy kabi odamlarni axloq-odobiga qarab, ularni ikkiga: yaxshi va yomonga bo'ladi.

Yaxshi odam deganda, u butun insoniy fazilatlarni o'zida to'plagan dono, aqlli, bilimdon, o'zgalarga yordam beruvchi, fe'l-atvori go'zal kishilarni ko'z oldiga keltiradi. Yomon odam esa Berdaqning nazarida, xalqning ofatidir, u xalqni ham, og'a-inini ham qadriga yetmaydi. Umuman olganda, shoir axloqiy qarashlarining markazida insoniylik turadi. Berdaq 1900 yili, 73-yoshida vafot etadi. 1998-yili O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi.

So'zimiz yakunini davlatimiz rahbari so'zlari bilan yakunlasak maqsadga muvofiq bo'ladi. 30.06.2021-yil yoshlar bilan bo'lgan uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoshlarga qarata: Bugungi harakatlaringiz bilan o'z kelajagingizga asos solyapsizlar deya quydagilarni takidladilar: Bilimli yoshlar - kelajak poydevori. Bugungi harakatlaringiz bilan o'z kelajagingizga asos solyapsizlar. Men sizlar bilan g'ururlanaman, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yoshlarga berayotgan e'tiborimiz natijalar berayotganini ko'rib, xursand bo'ldim. Bugun hech bir soha yo'qki, yoshlar muvaffaqiyatga erishmayotgan bo'lsa. Yoshlarning yo'lini ochib bersak, ularga yelkadosh bo'lsak, yanada ulkan natijalarga erishamiz. Mening eng katta ishongan kuchim, davlatimizning eng katta boyligi - bu yoshlar, - dedi Prezident.²

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" xalqaro madaniyat forumi ishtirokchilariga, qilgan nutqidan 15.09.2021-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 30-iyun kuni O'zbekiston yoshlari va talabalari forumiga tashrifidagi nutqidan.
3. www.saviya.uz Qoraqalpoq adabiyoti. 2019 yil
4. www.Vikipediya: Adabiy muxit. Maqolalar to'plamlaridan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-iyun kuni O'zbekiston yoshlari va talabalari forumiga tashrifidagi nutqidan.

5. Nurmuxammedov M. Qoraqalpoq adabiyoti tarixi. T. 1978.
6. Tojiboyev A. Sir qo'shiqlari. T. 1970.
7. Berdaq. Tanlangan asarlar. T. 1978.
8. Kaipberganov T. Gumroxlar. Roman. T., 1978.
9. <http://www.samdu.uz/> <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Berdaq>
10. <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/berdaq-1827-1900/>